

**Ashtarxoniylar davlati tarixining yoritilishi va tarixshunoslik masalalari****Ramazonova Guldon Odiljon qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti

2Tar-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ashtarxoniylar davlati o’rganilish tarixi, hukmdorlar shajarasi, ularning boshqaruv tizimlari va bu davrdagi yozilgan asarlarning ashtarxoniylar davrining batafsil yoritilishini ta’minlab berganligini haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: “Musaxxir al-bilod”, “Muhit at-tavorix”, “Silsilat us-salotin”.

Ashtarxoniylar hukmronligi davriga oid tarixiy manbalar haqida gap ketganda ularning mazmun-mohiyati, uslubi jihatidan temuriylar va shayboniylar an’analarini davom ettirganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, manbalarda xonlarda, lasharboshilar hamda harbiy amaldorning urushlar, janglar chog’idagi amallarni kinoyaomuz satrlar, jummalarda turli sifatlar bilan vasf qilinganligiga shohid bo’lamiz. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrini yoritish uchun ko’p ma’lumotlar borligini ko’rib o’tishimiz mumkin. Shulardan biri “Musaxxir al-bilod” bo’lib, XVI-XVII asr boshlarini o’rganuvchi qimmatli manba hisoblanadi. Bu asar XVI asr ikkinchi yarmida tug’ilib, XVII asr birinchi yarmi oxirlarida vafot etgan Muhammadyor ibn Arab Qatag’on nomi bilan tanilgan mahalliy tarixchi qalamiga mansub “Musaxxir al-bilod” (“Mamlakatlarning egallanishi”) nomli asar shayboniylar va dastlabki ashtarxoniylar davri siyosiy voqealari hamda harbiy jarayonlar haqida kengroq ma’lumot beradi. Bu asarda dastlabki ashtarxoniylar davrida, 1611-yilda fors tilida yozilgan. U ilk bor o’zbek tiliga 2009-yil o’girilib, Toshkenda nashr qilingan. Bu davrga oid ma’lumotlar birgina bu asar bilan cheklanib qolmagan. Ashtarxoniylar davri tarixini yoritib beruvchi yana bir



mashhur asar- Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asari hisoblanadi. Ushbu nom asarning kirish qismida keltirilgan, lekin asar “Tarixi Muqimxoniy (“Muqimxoniy tarixi”) , “Tazkirayi Sayid Muqimxoniy” (“Sayid Muqimxonning tazkirasi”) , “Muqimnoma” (“Muqimxon haqida”) nomlari bilan ham atalagan. Bu asar 1697-1704-yillar orasida yozilgan. Muallif Muhammad Yusuf Munshiy ibn xoja Baqo XVII-XVIII asr boshlarida yashagan yirik tarixchi olim. Asarda keltirilgan ayrim faktlarga qarasaq, u asli balxlik bo’lgan va Subhonqulixon (1651-1681-yillar Balx, 1681-1702-yillarda Buxoro xoni) hamda Muhammad Muqimxon (1697-1707-yillarda Balx xoni) saroyida munshiy bo’lin xizmat qilgan.

Ashtarxoniyalar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi haqida bir necha ma’lumotlar keltirilgan. Shulardan biri K.E.Bosfort “Shayboniyalar Buxoro 1598-yilgacha hukmronlik qildilar, keyin esa hokimiyat joniylar qo’liga o’tadi. Ular Jo’jining o’g’li O’rda avlodidan bo’lib, shayboniyalarga ona tarafdan qarindosh edilar”,- deb yozgan.¹ Buxoro taxtiga o’tirgan bu so’nggi shayboniy haqida tarixchi olim M.A.Abduraimov Pirmuhammadxon “Abdulaxoni soniyning amakisi keksa Pirmuhammad bo’lgan”, deb yozadi.² Aslida esa “Abdulaxoni soniyning amakisi keksa Pirmuhammad” allaqachon, Balx xoni bo’lib turganda(1546-1567) vafot etgan edi. Manbalaning ko’pchiligi Pirmuhammadxonning mazkur voqeadan o’ttiz yil oldin, 1567-yilning 2-martida vafot etganini tasdiqlaydi. Ma’lumotlarda keltirilishicha 1601-yilda Pirmuhammadxon bilan Samarqand hokimi Boqi Muhammadxon o’rtasida adovat boshlandi. Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammadxon o’rtasidagi kelishmovchilik va jang haqida Mahmud ibn Vali va Hoji Mir Muhammad Salim batafsil hikoya qiladilar. Ularning yozishiga ko’ra, jalor (Muhammad Saidbiy), do’rmon (Boqibiy, Aliqulibiy, Soqibek) va boshqa qabila boshliqlarining ig’vosi bilan Pirmuhammadxon va Boqi Muhammadxon o’rtasidagi munosabatlar buzilgan. Ular Pirmuhammadxonni avval "Samarqandga qo'shin tortib, u yerdagi To'qay Temuriylar hokimiyatini tugatish ga undadilar, keyin hal qiluvchi daqiqalarda unga sotqinlik qilib, Boqi Muhammadxon tomoniga o'tib ketdilar. Yana boshqa muhim sabab ham bor edi.

¹ Bosford K.E. Musulmon sulolalari (yilnomalar va shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma). T.: Fan, 2007.-116-b

² Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994. 184-185-b.



Boqi Muhammadson rasman Pirmuhammadxon noibi bo'lsa-da, o'zboshimchalik bilan ish tutgan, buning ustiga o'z ulusini kengaytirishga harakat qilgan. Masalan, 1601-yilda u Miyonkolning eng mustahkam qal'asi Dabusiyani bosib oldi, keyin Qarshi va Keshni qo'lga kiritdi. Bu hol katta harbiy to'qnashuvga sabab bo'ldi. Samarqand yaqinidagi Bog'i shamol mavzeida bo'lib o'tgan jangda Buxoro qo'shinlari son jihatdan ko'p edi. Unga Balxdan ham madad kelgandi. Shunga qaramay, Boqi Muhammadxonning qo'li baland keldi. Pirmuhammadxon va qo'lga tushgan uning barcha e'tiborli amirlari qatl etildi. Hoji Mir Muhammad Salimning yozishicha, "Boqi Muhammadxon zafar qozonib, Buxoroga yaqinlashganda katta-kichikkacha barcha raiyat uning istiqboliga chiqdi va saodatli ul muzaffar xon shaharga kirdi va 1601-yilda shohlik va jahondorlik taxtiga o'ltirdi". Shunday qilib, 1601-yilda Buxoro xonligida hokimiyat yangi sulola- ko'p hollarda joniylar (Joni Muhammadxon nomidan) yoki ashtarxoniylar (kelib chiqish o'rni bo'yicha) degan nom bilan yuritiladigan To'qay Temuriylar sulolasi qo'lga o'tdi. Ba'zi manbalarda aytilishicha, Buxoro taxtiga Boqi Muhammadxon o'z otasi Joni Muhammadxonni o'tqazgan va uning nomidan tangalar ham zarb qildirgan. Lekin Joni Muhammadxon Buxoro taxtidan voz kechgan. Buning asosiy sababi hokimiyatning qonuniyligi bilan bog'liq edi, albatta, Movarounnahr hokimiyati Chingizxon hukmronligi davridan boshlab uning o'g'li Chig'atoy va uning vorislari bosharuviga berilgan edi. Chingizxon tomonidan joriy qilingan boshqaruv an'analari jamiyat ongiga singib ketgan bo'lib, mazkur an'analarni aristokratiyaning katta guruhi himoya qilar edi. Ya'ni, biror sulola vakillari o'zlari xohlagan shaxsni belgilangan tamoyillarga amal qilmasdan taxtga o'tqaza olmasdilar. Bu sulolaning mashhur vakillaridan biri hisoblangan Imomqulixon hisoblanib (1589-1644) ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xonligining uchinchi hukmdori bo'lib, 1611-1642-yillarda davlatni boshqargan. Imomqulixon Muhammadxon ibn Din (1589-1644) ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xonligining uchinchi hukmdori bo'lib, 1611-1642-yillarda davlatni boshqargan. Otasi Din Muhammad 1599-yilda olamdan o'tgach, amakilari Boqi Muhammadxon va Vali Muhammadxonlar davrida ma'lum hududlar idorasi bilan shug'ullangan. Imomqulixon ilk bor tarix sahnasida otasi Din Muhammadning Xurosondagi mag'lubiyati arafasida tilga olingan. Otasining sodiq



xizmatkori Haq Yasovul tomonidan Din Muhammadning xotini va ikki o'g'li: Imomqulixon hamda Nadr Muhammadlar jang maydonidan olib ketilgan. Ikki o'g'lini otning ustidagi xurjunning ikki tomoniga solib qochayotganda, dushman o'qining biri kelib Nadr Muhammadning oyog'iga tegadi. Buning natijasida u umrbod bir oyog'i oqsoqlanib yurishga majbur bo'lgan. Keyinchalik, amakisi Buxoro taxtiga o'tirgandan so'ng Imomqulixonni dastlab Samarqand hokimi etib tayinlaydi. Buning asosiy sababi, Balxni o'z nazoratida saqlash va Imomqulixonni valiahd bo'lishiga yo'l qo'ymaslik edi. Balx hokimi etib Shohbek Ko'kaldoshni tayinlaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu sulola Buxoro xonligini boshqargan va uni madaniy, siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan boshqargan va bu sulola O'rta Osiyodagi yirik madaniyat tarqatuvchi mamlakatlardan biri hisoblanadigan davr bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994. 184-185-b.
2. Bosvord K.E. Musulmon sulolalari (yilnomalar va shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma). T.: Fan, 2007.-116-
3. Tuliboyeva J.M. 18-asr va 19-asrning birinchi yarmida Qozog'iston va Buxoro xonligi – Olmaota, 2001. – B. 50.
4. Mahamadvafa Karminaghi. Tohfati ul-xoniy. Jamshed Churazoda va Nurullo G'iyosovlar tomonidan kirish, matn, nusxa, sharh va kataloglarni tayyorlash. Xo'jand: Nashriyot, 2017. S. 410.b
5. O'zbekiston tarixi (XVI asrning XVI birinchi yarmi). Javob. muharrir D. Alimova. -T.: Fan, 2012. -S. 85-174-b
6. Mirzaqulov B. Buxoro tarixi zarvaraqlarida. Eng qadimgi davrlardan XX asr 20-yillari ikkinchi yarmigacha. 1-kitob. -T.: Lesson Press. 2016.-169-197-b
7. Muhammad Tolib. Matlab ut-tolibin/Fors tilidan tarjima va izohlar mualliflari G.Karimiy va E.Mirkomilov. -T.: Movarounnahr, 2016.-205-212 b.
8. Akbar Zamonov. Buxoro xonligi tarixi.T:O'qituvchi,2021.171-184-b